Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

QIYOSIY ADABIYOT ASOSIDA KOREYS TILINI O'QITISH: TARIXIY XOTIRA VA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nazira Omonjonovna Xo'janazarova*
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti koreys tili yo'nalishi katta o'qituvchisi
✉ hujanazarovanazira@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada koreys tilini chet tili sifatida o'qitishda qiyosiy adabiyot metodidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda koreys va o'zbek adabiyotidagi tarixiy xotira, urush, sog'inch, ayriliq, kutish kabi umumiy motivlarni qiyosiy tahlil qilish orqali talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi taklif etiladi. Shuningdek, she'riy va nasriy matnlarni tarixiy hamda madaniy kontekst asosida o'qitishning samarali usullari yoritilib, dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar

koreys tili, qiyosiy adabiyot, tarixiy xotira, madaniyatlararo kompetensiya, 이산가족, urush yillari adabiyoti, badiiy matn, koreys tili metodikasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743622

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'qitish faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasida til o'rganuvchidan o'sha xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini anglash ham talab etiladi. Ayniqsa, koreys tilini o'qitishda badiiy adabiyot talabalarda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Adabiy asarlar xalqning tarixiy xotirasini, ruhiy kechinmalarini va milliy o'zligini aks ettiruvchi madaniy merosdir. Shu sababli badiiy matnlar koreys tilini o'qitishda autentik material sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar bunday matnlarni o'qish orqali yangi leksik birliklar va grammatik konstruksiyalarni tabiiy kontekstda o'zlashtiradi, shuningdek koreys xalqining tarixiy taqdiri va madaniy qadriyatlarini chuqurroq anglaydi.

Koreys tilini o'rganuvchilarning aksariyati **TOPIK (Test of Proficiency in Korean)** xalqaro imtihonini topshiradi. TOPIK II bosqichidan boshlab matnlarni tahlil qilish, yashirin ma'nolarni anglash va madaniy kontekstni to'g'ri talqin qilish talab etiladi. Edward T. Hallning "madaniyat aysbergi" (Cultural Iceberg Model) nazariyasiga ko'ra, madaniyatning ko'rinadigan unsurlari (til, kiyim, taom, urf-odatlar) uning faqat kichik qismini tashkil etadi, asosiy qismi esa qadriyatlar, e'tiqodlar, tarixiy xotira va dunyoqarash kabi yashirin komponentlardan iborat[1]. Shu sababli badiiy adabiyot madaniyatning aynan ko'rinmaydigan qatlamlarini anglashning samarali vositasi hisoblanadi. Shuning uchun adabiy matnlar bilan ishlash nafaqat tilni o'rganish, balki xalqaro baholash tizimida muvaffaqiyat qozonish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

[1]Hall, E. T. Beyond Culture. New York: Anchor Books, 1976. P. 57–61.

Koreys adabiyotida urush, ayriliq, sog‘inch va kutish motivlari ayniqsa XX asr o‘rtalaridan boshlab keng rivojlandi. Bunga asosiy sabab 1950–1953-yillardagi Koreya urushi bo‘lib, uning oqibatida millionlab oilalar bir-biridan ajralib qoldi. Koreys tilida **이산가족 (ayrilgan oilalar)** deb ataladigan ushbu hodisa bugungi kungacha xalqning tarixiy xotirasida saqlanib qolgan. Bu motiv ko‘plab she'rlar, hikoyalar va romanlarda o‘z aksini topgan. Mazkur tarixiy kechinmalar o‘zbek xalqiga ham begona emas. Ikkinchi jahon urushi yillarida minglab oilalar ota, aka-uka yoki farzandlaridan ayrildi. Ularni yillar davomida kutgan onalar, turmush o‘rtoqlar va farzandlarning iztirobi o‘zbek adabiyotida ham chuqur aks ettirilgan. Yurtimizning barcha xududlaridagi ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga atalgan xotira va qadrlash xiyobonidagi **“Motamsaro ona”** haykali ana shu sog‘inch, sabr va umidning ramzi hisoblanadi.

Shu bois koreys va o‘zbek adabiyotidagi urush mavzusini qiyosiy o‘rganish talabalar uchun tarixiy voqealarni shunchaki fakt sifatida emas, balki insoniy kechinmalar orqali anglash imkonini beradi. Bunday metodika tilni o‘rganish bilan birga madaniyatlararo empatiyani ham shakllantiradi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, kontent-tahlil hamda metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida koreys va o‘zbek adabiyotidagi tarixiy xotira, urush, sog‘inch, ayriliq va kutish motivlari o‘zaro taqqoslandi. Kontent-tahlil yordamida tanlangan she'riy va nasriy asarlarning mazmuni, madaniy komponentlari hamda lingvistik xususiyatlari o‘rganildi. Metodik modellashtirish orqali koreys tilini o‘qitishda qiyosiy adabiyot asosida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan besh bosqichli metodika ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari ilmiy adabiyotlar tahlili hamda muallifning pedagogik kuzatuvlari asosida umumlashtirildi.

Maqolaning ilmiy yangiligi

Mazkur tadqiqotda koreys tilini o‘qitishda **“Tarixiy xotirani qiyosiy adabiyot asosida o‘qitish”**metodikasi taklif etiladi. Ushbu metodika koreys va o‘zbek adabiyotidagi umumiy tarixiy motivlarni qiyoslash orqali talabalarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni maqsad qiladi. Yondashuv adabiy matnlarni faqat lingvistik emas, balki tarixiy, madaniy va psixologik kontekstda tahlil qilishga asoslanadi.

Taklif etilayotgan metodika

Maqolada quyidagi besh bosqichli metodika tavsiya etiladi:

1-bosqich. Tarixiy kontekstni yaratish

Dars Koreya urushi va Ikkinchi jahon urushi davridagi O‘zbekiston tarixiga oid qisqa ma'lumotlar bilan boshlanadi. Talabalarga ikki xalq boshidan kechirgan ayriliq va yo‘qotishlar haqida faktlar taqdim etiladi.

2-bosqich. Adabiy matn bilan tanishish

Talabalar 김소월Kim So-volning **“진달래꽃[2]”**, 윤동주Yun Dong-juning **“서시[3]”**, 최인훈 Choi In-hunning “광장[4]” kabi asarlarini o‘qiydilar. Matn bilan ishlash davomida yangi leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar izohlanadi hamda urush, tarixiy xotira, ayriliq va milliy o‘zlik bilan bog‘liq madaniy tushunchalar izohlanadi.

3-bosqich. Qiyosiy tahlil

Koreys adabiyotidagi urush, sog‘inch, tarixiy xotira va ayriliq motivlari o‘zbek adabiyotidagi Ikkinchi jahon urushi mavzusiga bag‘ishlangan asarlar bilan qiyoslanadi. Xususan, Kim So-volning “진달래꽃” she’ri Zulfiyaning “Uni Farhod der edilar [5]” she’ri bilan, Yun Dong-juning “서시” she’ri G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan[6]” asari bilan, Choe In-hunning “광장” romani esa Oybekning “Quyosh qoraymas[7]” romanidan tanlangan parchalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil davomida urushning inson taqdiri, oilaviy qadriyatlar, tarixiy xotira va milliy o‘zlikka ta’siri muhokama qilinadi.

[2]김소월. 진달래꽃. 서울: 민음사 2022

[3]윤동주. 하늘과 바람과 별과 시. 서울: 민음사 2022

[4]최인훈. 광장. 서울: 문학과지성사 2014

[5]Zulfiya. Uni Farhod der edilar // Saylanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 186–190.

[6]G‘afur G‘ulom. Sen yetim emassan // Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1987. – B. 145–149.

[7]Oybek. Quyosh qoraymas. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B. 35–58.

4-bosqich. Madaniyatlararo muhokama

Talabalar quyidagi savollar asosida munozara olib boradilar:

- Koreys onasining farzandini kutishi bilan o‘zbek onasining kutishi o‘rtasida qanday o‘xshashlik mavjud?
- Nima sababdan urush haqidagi she'rlarda tabiat obrazlari ko‘p uchraydi?
- Tarixiy fojialar xalq adabiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

5-bosqich. Refleksiya va ijodiy topshiriq

Talabalar “국제시장”, “아일라” koreys kinolarini, “Ilhaq”, “O‘zbek qizi”, “Vatan” o‘zbek kinolarini mustaqil ko‘rib, kichik guruhga bo‘linib, taqqoslab, taqdimot tayyorlaydilar. Taqdimot jarayonida qo‘shimcha internet manbalaridan izlash talab etiladi. Bu topshiriq til ko‘nikmalari bilan bir qatorda empatiya va tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Koreys filmi	O‘zbekfilmi	Taqqoslash mavzusi
국제시장 (Ode to My Father)	**Ilhaq**	**Urush tufayli parchalangan oilalar, ota-ona va farzand taqdiri, fidoyilik**
아일라 (Ayla: The Daughter of War)	**O‘zbek qizi yoki Vatan**	**Insonparvarlik, mehr-shafqat, urush davridagi axloqiy qadriyatlar va jasorat**

Natijalar va muhokama

Taklif etilgan metodik yondashuv koreys tilini o‘qitishda adabiy matnlarning nafaqat lingvistik, balki tarixiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil asosida tashkil etilgan darslarda talabalar ikki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini chuqurroq anglaydi, badiiy matnni turli nuqtai nazardan tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida empatiya, tolerantlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Shuningdek, bunday yondashuv talabalarning lug‘at boyligini kengaytirish, autentik matnlarni tushunish, muloqot davomida madaniy tafovutlarni hisobga olish va fikrini asosli bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dars jarayonida adabiy asarlar bilan bir qatorda tarixiy hujjatlar, badiiy filmlar hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish ta'limning interfaolligini oshiradi va talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini faollashtiradi.

Xulosa

Qiyosiy adabiyot asosida tashkil etilgan darslar koreys tilini o‘qitishni grammatik bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qo‘ymaydi. Bunday yondashuv talabalarga ikki xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy kechinmalari va madaniy qadriyatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, urush, sog‘inch, ayriliq va kutish motivlari orqali koreys va o‘zbek xalqlarining umumiy insoniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Taklif etilgan metodika koreys tilini o‘qitishda qiyosiy adabiyotdan foydalanishning yangi pedagogik modelini namoyon etadi. Mazkur yondashuv adabiy matnlarni lingvistik birlik sifatida emas, balki tarixiy xotira, madaniy qadriyat va milliy o‘zlikni aks ettiruvchi autentik manba sifatida talqin qilish imkonini beradi. Kelgusida ushbu metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali baholash hamda raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiyalash istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Natijada talabalar nafaqat tilni, balki o‘rganilayotgan xalqning ma’naviy olamini ham chuqurroq anglaydilar, bu esa ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuv koreys tilini chet tili sifatida o‘qitishda qiyosiy adabiyotdan foydalanishning amaliy modelini taklif etadi hamda kelgusida tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligini empirik jihatdan aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hall, E. T. Beyond Culture. New York: Anchor Press/Doubleday 1976.
2. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters 1997.
3. Kramsch, C.Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press 1993.

4. Carter, R., & Long, M. N. Teaching Literature. London: Longman 1991.
5. 김소월. 진달래꽃. 서울: 민음사 2022.
6. 윤동주. 하늘과 바람과 별과 시. 서울: 민음사 2022.
7. 최인훈. 광장. 서울: 문학과지성사 2014.
8. G‘afur G‘ulom. Sen yetim emassan. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. , 1987. – B. 145–149.
9. Zulfiya. Uni Farhod der edilar // Saylanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 186–190.
10. Oybek. Quyosh qoraymas. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B. 35–58.